



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

"Mening odatlarim"

Umumiy o'rta ta'lim maktab 3-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari

Darsning maqsadi

O'quvchilarga xulq-atvor va odatlarning ahamiyatini tushuntirish, yangilash va ularning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatish.



Yomon odatlarni tushuntirish va ulardan saqlanishga yordam berish.

Qonunlarga rioya qilish odatini shakllantirish va o'zini boshqarish ko'nikmalarini o'rgatish.



O'quvchilarda axloqiy odatlarni rivojlantirish va ularga ijobiy ta'sir ko'rsatish.



Kutilayotgan natijalar



Tushunish

O'quvchilar odatlar va ularning ahamiyatini yaxshi tushunishadi.



Qonunlarga rioya

Qonunlarga rioya qilishning ahamiyatiga katta e'tibor qaratadilar.



Himoya

Yomon odatlarning zarari va ulardan qanday qochish kerakligini bilishadi.



O'zini boshqarish

O'zini boshqarish va odatlarini yaxshilash haqida faol mulohaza yuritadilar.

Dars metodlari

Rolli o'yinlar

O'zini boshqarish, yomon odatlardan saqlanish bo'yicha o'yinlar.



Blits so'rov

Odatlar, qonunlarga rioya qilish haqida qisqa savollar.

Suhbat

Yomon va yaxshi odatlar haqida muhokama o'tkazish.



Hikoyalar

O'zini boshqarish, yomon odatlar haqida qiziqarli hikoyalar.

Foydalaniladigan materiallar

Rasmlar



Insonlarning yaxshi va yomon odatlariga oid rasmlar

Chizmalar




“Yaxshi odatlar”, “Yomon odatlar”, “Qonunlarga rioya qilish”, “O‘zimni boshqaraman” tushunchalariga oid tasvirlar

Kartochkalar



Yaxshi va yomon odatlarga misollar, savollar va vaziyatlar tasvirlangan kichik varoqchalar



Darsga kirish

Bugun biz odatlar haqida gaplashamiz. Odatlar — bu har kungi ish-harakatlarimiz, amaliyotlarimiz. Hayotimizda yaxshi va yomon odatlar birga xamroh bo‘ladi, biz qanday odatlar bilan yashashni istaymiz? Yomon odatlar nima va ulardan qanday saqlanish kerak?

O'qituvchi darsni odatlarning ta'rifi va ahamiyati bilan boshlaydi. Yaxshi va yomon odatlar haqida suhbat o'tkaziladi.

Yaxshi odatlar

Ta'rif

Yaxshi odatlar — bu odamlarning hayotidagi ijobiy o'zgarishlar, o'z-o'zini qo'llab-quvvatlashlari.

Misol

Vaqtni yaxshilash, ishni amalga oshirish, yordam berish, hurmat qilish.

Natija

Yaxshi odatlar hayotni yaxshilaydi va muvaffaqiyatga olib keladi.



Yomon odatlar



Ta'rif

Salbiy natijalarga olib keladigan ish-harakatlar

Misollar

Tartibsizlik, o'qishga e'tiborsizlik, harakatsizlik

Oqibatlar

Insonga yoki jamiyatga zarar yetkazishi mumkin

Qonunlarga rioya qilish odati

Ta'rif: "Qonunlarga rioya qilish odati — bu insonning qonunlarni yaxshi bilishi va ularga rioya qilishga intilishidir."



Bilish

Qonunlarni yaxshi o`rganish va tushunish

Intilish

Qonunlarga rioya qilishga o'zini harakat qilish

Amaliyot

Kundalik hayotda qonunlarga amal qilish

Misol: "Maktabda, jamoat joylarida qoidalarga rioya qilish, jamoat joylarida boshqalarning huquqlariga hurmat qilish."



Hayotiy vaziyat: Yo'qolgan kitob



Holat


Sinfda bir o'quvchi kitobini yo'qotib qo'ydi. U kitobni topish maqsadida sinfdoshlariga murojaat qiladi. Unga qanday yordam berish mumkin va yomon odatlarning kelib chiqishini qanday oldini olish mumkin?

Savollar

- Bu holatda qanday ijobiy odatlar yordam berishi mumkin?
 - Yomon odatlardan saqlanish uchun nima qilish kerak?



Hayotiy vaziyat: Ta'lim olishda o'zini boshqarish




Holat

Sinfda o'quvchilar har kuni bir-birlariga yordam berishadi. Bir o'quvchi har kuni vaqtini samarali boshqarar va bahslarda o'z fikrini to'g'ri tushuntiradi. Uning o'rtog'i esa darslarga e'tiborsiz bo'lib, uy vazifalarini deyarli bajarmaydi.

Savollar

Ta'lim olishda o'zini boshqarish odati hayotda qanday samaralar keltiradi?



Rolli o'yin: Mas'uliyatsizlikka yechim



1 Holat

Sinfda bir o'quvchi darsga doim ruchkasiz keladi. Yozma vazifalarni bajarish paytida, sinfdoshlaridan "ortiqcha ruchka" so'rab ularning o'z vazifalarini bajarishiga halaqit beradi. Sinfdoshlarida "ortiqcha ruchka" bo'lmagan holatlarda yozma vazifalarni bajarmaydi. Bunday odat qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

2 Vazifa

Sinfdoshlar yordam berishga harakat qilishlari lozim.

3 Yechim

Yomon odatlardan saqlanish yo'llarini topish.



Blits so'rov

- 1 Yaxshi odatlar nima va ular qanday ta'sir qiladi?
- 2 Yomon odatlar qanday muammolarga olib kelishi mumkin?
- 3 Qonunlarga rioya qilishning ahamiyati nimada?
- 4 Qanday yomon odatlardan saqlanish kerak?





Xulosa va tahlil

Har birimiz yaxshi odatlar bilan yashashimiz va yomon odatlardan saqlanishimiz kerak.

O'quvchilar o'z odatlarini tahlil qilib, yaxshilash yo'llarini belgilaydilar. Kelajakdagi maqsadlarni muhokama qiladilar.

